

OILA- TARBIYANING ASOSI.**Manzura Mutalibovna Aminova***Qo'qon davlat Universiteti, Milliy g'oya va huquq kafedrfsi
dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 25.03.2026**Revised: 26.03.2026**Accepted: 27.03.2026***KALIT SO'ZLAR:***oila, jamiyat, ijtimoiy
guruh, shaxs,
reproduktiv funkuiya,
ijtimoiylashuv, jamoaviy
munosabatlar, ota-ona
obro'si, o'rnak.**Maqolada avtor oilaning jamiyatdagi o'rnining ko'p qirrali ekanligini, lekin hozirgi davrga kelib oilaning eng muhim vazifasi jamiyat uchun ijtimoiy hayotga tayyor, o'z fikri va dunyoqarashiga ega shaxsni tarbiyalash ekanligini ko'rsatib bergan. Avtor oiladagi to'g'ri muhit bolaning keyingi hayoti uchun yo'llanma bo'lishini, aks holda noto'g'ri muhitda o'sgan bola xulqini hech bir ijtimoiy institutlar tuzata olmasligini ko'rsatib bergan. Aynan oila bola shaxsini o'ziga ishongan, jamiyatdagi umuminsoniy munosabatlarni to'g'ri talqin qila oladigan va oiladagi mehr, g'amxo'rlikni boshqalarga bera oladigan bo'lib etishadi. Aksincha hozirgi kundagi yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik, huquqbuzarlik, ta'limga bo'lgan bepisandlik avtor tomonidan oilaviy ajrimlarning ko'payishi, bolalarning ota yoki ona mehridan maxrumligi oqibati ekanligini ochib bergan. Taqqoslovchi misollarning berilishi maqolaning ilmiy amliy ahamiyatini ko'rsatib beradi.***Mavzuning dolzarbligi.**

Oila jamiyatning asosiy bo'lagi. Chunki oila insonni xalovat topish, himoyada bo'lishini ta'minlaydigan, uning xotirjamlik maskanidir. Oila hayot maktabi bo'lib u kelajakka ma'naviy yetuk, ahloqiy mulammal farzandlarni yetkazib beradi. Millatimiz

qadriyatlariga ko'ra oila deyilganida insonni ruhiy sokinlashtiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi va uni umri davomida asrovchi xonadoni tushuniladi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, ahloqiy mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila tor maishiy tushuncha emas, balki u ijtimoiy jamoa. SHu sababli oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi. Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazadi. Davlatimiz tomonidan oilani muhofaza qilish, qilishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 14 bob, 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"[1] deb qayd etib qo'yilgan. Bu masala Oila kodeksida alohida ko'tarilib, oilaning barcha muammolarini echimini topish mumkin.

SHuningdek muqaddas dinimiz islom ta'limotlari Qur'oni Karim va Hadisu shariflarda ham oila mustaxkamligi jamiyat uchun ham, inson uchun ham birdek zarur xodisa sifatida baholangan. Jumladan Qur'oni Karimning Nahl surasi 72 oyatida "Alloh sizlar uchun o'zlaringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o'g'illar va nabiralar paydo qildi va sizlarni pok narsalardan rizqlantirdi" deyilgan.[2]

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Uyg'onish davri allomalarining oila va uni boshqarishga oid asarlaridan ruhlanib XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr olimlari va ma'rifatparvarlari – Axmad Donish, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Avaz, Abdulla Avloniy, Fitrat kabi oila axloq-odobi, psixologiyasiga oid qator asarlar yaratdilar.

A.Avloniyning oila pedagogikasi va psixologiyasiga oid fikrlari ham diqqatga sazovordir. Uning 1913 yilda yozgan va 1917 yilda ikkinchi marta nashr kilingan "Turkiy guliston yoxud axlok" asari Kaykovusning "Qobusnoma", IOsuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik", Nosir Xisravning "Saodatnoma", Sa'diyning "Guliston va bo'ston", Jomiyning "Bahoriston",Navoiyning "Mahbub -ul-qulub" asarlariga o'xshash janrda yozilgan bo'lib, muallif unda oilada bola tarbiyasi va umuman oilaning ijtimoiy rolini ochib bergan. Avloniy tarbiya jarayonida oilaning va jamoatchilikning o'rnini alohida ta'kidlaydi.

Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega. Bolaning shaxs sifatlariga to'xtalib, unda oilaning rolini ko'rsatar ekan, «Qush uyasida ko'rganini qiladur», - deydi. «Inson javxari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lub chiqar...». Demak olim, bola tarbiyasida oilaning rolini birlamchi qilib qo'yadi: «... tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq lozim ekan. Tarbiyani kim qilur? Qayda qilinur? degan savol

keladur. Bu savolga "birinchi uy tarbiyasi - bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi - bu ota, muallim, mudarris va xukumat vazifasidir,- degan javob bersak»- deb yozadi.[3] Mazkur tahlillardan ko'rinib turibdiki, SHarq mutafakkirlari oiladagi tarbiyaga katta ahamiyat berganlar.turibdiki, Avloniy bolaning mukammal tarbiyasi nafaqat oilaga, balki maktab va jamoat tashkilotlariga ham bog'liqligini e'tirof etib, tarbiya masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etgan. IOqoridagi qisqacha tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, musulmon olami, SHarq mutafakkirlari orasida oila muammolari bilan shug'ullangan va shu xususda o'zlarining qimmatli fikrlarini kelgusi avlodlar uchun qoldirgan olimlar juda ko'p.

Lekin, BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi ayollarning taxminan 70 foizi hayoti davomida zo'ravonlikni boshdan kechirgan. Erkaklar ko'pincha turmush o'rtog'i, ota onasi, farzandlari, xonadoshlariga nisbatan tajavvuzkorlik namoyon etsa, ayollarda esa asosan, ota-onalar va bolalarga nisbatan kuzatiladi. Turmush o'rtog'i va sherigiga nisbatan zo'ravonlik kamdan-kam holatlarda qayd etiladi. Oiladagi zo'ravonlikning bir necha turlari mavjud: jismoniy, jinsiy, psixologik va iqtisodiy.

Jismoniy zo'ravonlik - bu jabrlanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir o'tkazish, jismoniy zarar yetkazish maqsadida, kaltaklash, tan jarohati yetkazish, tanaga og'ir shikast yetkazish, kaltaklash, turtish, tepish, tarsaki ko'rinishida bo'ladi

Jinsiy zo'ravonlik - bu odam o'z xohishlariga qarshi jinsiy aloqada bo'lishga majbur qilish, tahdid qilish yoki aldangan paytdagi zo'ravonlik harakati.

Psixologik zo'ravonlik - inson psixikasiga zarar yetkazish, haqorat qilish, qo'rqitish, tahdid qilish, shantaj qilish, nazorat qilish kabilaro

Iqtisodiy zo'ravonlik - bu moddiy bosim bo'lib, o'qishni, ishlashni ta'qiqlash, moddiy yordamdan mahrum qilish va daromadlarni to'liq nazorat qilishda o'zini namoyon qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, shaxsiy daxlsizlik va xavfsizlik har qanday shaxsning ajralmas huquqi xisoblanadi. 1948 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida barcha insonlar zo'ravonliksiz yashash huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan. Insonni manipulyatsiya qilish va o'z kuchlarini ko'rsatish uchun tajovvuzkorlar turli xil xattixarakatlardan foydalanadilar:

Hukmronlik – zo'ravon o'zaro munosabatlar uchun javobgarlikni his qilishlari kerak. Ular turmush o'rtog'i va boshqa oila a'zolari uchun qarorlar qabul qilishadi, ularning nima qilishini aytib berishadi va so'roqsiz ularga bo'ysunishni kutishadi. Zo'ravon o'z qurboniga xizmatkor, bola yoki hatto uning mol-mulki kabi munosabatda bo'lishi mumkin.

=====

Xo'rlik - tajovuzkor o'z qurbonini nomukammal, kamsitilgan his qilishi uchun hamma narsani qiladi. Bunday vaziyatda, u o'z qurbonining hech nimaga arzimastligiga va hech kim u bilan boshqa munosabatlarni o'rnatishini istamasligiga ishonsa, ketish haqida qaror qabul qilish ehtimoli kamroq bo'lishini kutadi. Ta'qib qilish, suiiste'mol qilish, tanbeh berish va ijtimoiy kamsitish qurbonning qadrqimmatini pasaytirish va o'zini nochor his qilish uchun qilingan zo'ravonlik qurolidir.

Izolyatsiya – zo'ravon qurbonini o'ziga bog'liqligini oshirish uchun uni tashqi dunyodan uzib qo'yishga harakat qiladi. U oilasi yoki do'stlarini ko'rishni ta'qiqlashi yoki hatto ish yoki maktabga borishini ta'qiqlashi mumkin. Qurbon biror narsa qilishi, biron joyga borishi yoki kimnidir ko'rishi uchun ruxsat so'rash kerak bo'lishi mumkin.

Tahdidlar - tajovuzkorlar, odatda, qurbonlarini o'zidan uzoqlashishini oldini olish uchun tahdidlardan foydalanadilar yoki ular haqida xabar berolmasligi uchun qo'rqitishga harakat qilishadi. Zo'ravonlik qurboniga, farzandlariga, boshqa oila a'zolariga yoki hatto uy hayvonlariga zarar yetkazish yoki o'ldirish bilan tahdid qilishi mumkin. U, shuningdek, o'z joniga qasd qilish bilan tahdid qilishi mumkin, o'z qurboniga qarshi soxta ayblovlar qo'zg'atishi yoki tegishli tashkilotlarga xabar berishi mumkin.

Bezorilik – zo'ravon o'z qurbonini bo'ysundirish uchun turli xil bezorilik xarakatlaridan foydalanishi mumkin. Bunday xarakatlarga tahdid soluvchi ko'rinish yoki imo-ishoralar, mol-mulkni yo'q qilish va uy hayvonlariga og'riq keltirish kiradi. Bu xolat bo'ysunmaslik dahshatli oqibatlariga olib kelishi mumkin degan signaldir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev davlat rahbari sifatida ish boshlagan kunidanoq mazkur masalani kun tartibiga qo'ygan.

“Onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta'minlash, opa-singillarimizning og'irini engil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha davlat siyosatini faol davom ettirishni biz o'zimizning eng muhim vazifamiz, deb bilamiz.” [4] Davlatimizni olib borayotgan siyosatida bu masala birinchi o'rinda ustuvor vazifa etib belgilangan. SHu munosabat bilan hukumatimiz tomonidan yillar nomi bo'yicha Davlat dasturlari ishlab chiqilishi oilada yoshlar tarbiyasiga, ularning sog'ligiga e'tiborni kuchaytiradi va oilalarni mustahkamlash bilan bog'liq masalalarni echimini topishga xizmat qiladi.

Oila haqidagi juda ko'p ma'lumotlar va ilmiy izlanishlarda ko'pincha oiladagi er va xotinning, keyingi paytlarda uchinchi shaxsning aralashuvi, oilaviy ajrimlarning kelib chiqish masalalari o'rganilmoqda. Lekin oilaning, ayniqsa SHarq oilalarining birlamchi

=====

muhim vazifasi farzand ko'rish va uni tarbiyalash masalasi e'tibordan chetda qolmoqda. Yuqorida aytilganidek oilaning ichki va tashqi bir qancha funktsiyalari mavjud. Shulardan eng muhimi uning reproduktiv funktsiyasidir. Oilaning jamiyat uchun jismonan va ruhan sog'lom, ma'naviy barkamol, aqilli, tarbiyali, mehnatkash farzand etishtirib berishi asosiy vazifasidir. Chunki jamiyatni davomchisi, o'rtning keyingi rivojlanishini ta'minlovchi, uni taraqqiyotini qay darajada bo'lishini belgilovchi yosh avlodidir.

Davlatimiz shuni nazarda tutgan holda ayollar reproduktiv salomatligini asrash, ularni turmush tarzini yaxshilash, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishda ko'maklashishni o'z siyosatining asosiy yo'nalishlarida biri deb belgilab olgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Oiladagi milliy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning barchasi ijobiy ta'sirga ega bo'lib bolalarda biror bir ijobiy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Xuddi shu milliy tarbiyamizning natijasida farzandlar kamolga etib boradi.

Ayni paytda bugungi kunda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning ko'payishi, bilim olish va kasb-xunarga qiziqishning keskin kamayishi, axloqdagi va muomila madaniyatidagi nuqsonlar oilalardagi inqirozlar, ajrimlarning natijasidir.

Har bir bola oila ya'ni ota-ona mehriga muxtoj. Bola oiladagi shakllangan tarbiyasi va olgan ko'nikmalarini butun umri davomida saqlab qoladi. Oila ijtimoiy institut sifatida, bolani shaxs sifatida jamiyatga tayyorlab beradi, chunki bola o'z oilasida umrining ko'p qismini o'tkazadi. Hech bir tarbiya muassasi, hech bir tarbiya maskani oila kabi bolaning to'g'ri shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatolmaydi. Oilada bolaning shaxs sifatida mustaqil hayotga tayyorlab boriladi.

Oila o'z farzadini qanchalik ijobiy tarbiyalay olsa, xuddi shunday salbiy ta'sir ham ko'rsatishi mumkin. Oiladagi ota-onaning bir-biriga va bolalariga mehribonligi, buvi va boboning g'amxo'rliqi, aka-uka, opa-singillarning inoqligi, doimo yordamga tayyorligi oqibatida bola jamiyatga to'laqonli shaxs bo'lib kirib keladi. Aksincha, oiladagi bolaga etkaziladigan zarar, shunday kattaki, u bolani bir umrga ruhiy majruh shaxs qilib qo'yadi.

Shundan kelib chiqib oilaning bugungi kundagi vazifalari ham murakkablashib bormoqda. Hozirgi kunda bu vazifalarni quyidagicha ta'riflash mumkin:

- oila a'zolarini hayoti va sog'ligini muhofaza qilish;
- ularning jismoniy, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlash;
- sog'lom bola tug'ish va to'g'ri tarbiyalash;

– oila a'zolarini o'zining qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun qulay sharoit yaratish;

– jamiyatga jismonan va ruhan sog'lom shaxsni etkazib berish.[5]

Bu vazifalarning ichidagi eng muximi bolani mustaqil hayotga tayyorlab borishdir. Bu bolani jamiyatda kishilar o'rtasida turlicha ijtimoiy munosabatlar bo'lishini tushuntirish, bu munosabatlarning mohiyati bilan tanishtirish va asta-sekin bunday munosabatlarga kirishishga o'rgatishdir. Aynan oiladagi hayotga to'g'ri tayyorlangan bola ota-onasi, buvi-bobosi va oila a'zolarining munosabatlari tizimida o'z o'rnini topishga boshlaydi va ular bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatishga boshlaydi.

Bolaning yoshligida oiladan o'rgangan munosabatlar tizimi, uning keyingi shaxsiy hayotida ham saqlanib qoladi ya'ni oilaviy an'analar, ota-onaning bir biriga bo'lgan munosabati unda davom etadi.

Oila shunday bir tajriba maktabiki, unda bola ongi va ruhiyatiga beozor ta'sir ko'rsatib, bolada insonni qadrlash, ota-ona va oila a'zolarini xurmat qilish, kabi ahloqiy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Aynan shunday oilada bolaning hayoti har tomonlama to'g'ri tashkil etiladi, natijada bolaning o'z shaxsiy tajribasi, qadriyatlari, ko'nikmalari, odatlari. hayotga bo'lgan munosabati ijobiy shakllanib, keyingi faoliyati uchun qulay imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Oila bolani jamoaviy munosabatlarga ham tayyorlab boradi. Avvalo oila jamiyatdagi boshqa birlashmalarga o'xshab nafaqat maqsad va manfaatlari birligi asosida yashaydi balki oila qarindoshlardan iborat. Ota-onaning hassiyotlari, mehri-bola shaxsini o'ziga ishonchini tezlashtiradi. Oila shunday jamoaki, unagi munosabatlar turlicha, yosh munosabatlar ham, qiziqishlar ham har xil bo'lib, bolani intellektual rivojlanishigi ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi kattalarni bolalarga g'amxo'rliqi, ularni tashvishlariga quloq solishlar, maslahat berishlari bolada tevarak-atrofdagi kishilarga e'tiborli, mehribon inson bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlashi mumkin. Oila tarbiyasi ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha rotuqlar, tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona o'z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari shart. SHuningdek, normal oilaviy muhit, ota-onaning obro'si, to'g'ri kundalik reja, bolaning kitob o'qishiga, mehnat qilishiga o'z vaqtida jalb qilishlari ham muhim muvaffaqiyat garovidir.

“Bolalikda tarbiyalangan vatanparvarlik hissi insonni hech qachon tark etmaydi. SHu bois ota-onalar bolalarida milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik hislarini tarbiyalash tamoyillari ustida ishlamoqlari kerak. Bunda yashab turgan muqaddas zaminimiz, uning quyoshi, suvi, havosi, bog'i rog'lari, mehmondo'stligi va insonparvarlik bola qalbini cho'lg'ab olmog'i lozim. Buning uchun ota-onalar bolalariga xalq pedagogikasi janrlarida talqin etilgan ertaklar, hikoyalar, qo'shiqlardan foydalanish kerak.” [6]

Ota-onalar o'z farzandalari bilan birgalikda tabiat qo'yniga sayr qilishlari ham yaxshi natija beradi.

Ular farzandlarining tabiatdan bahramand bo'lishdan tashqari, ona vatanga bo'lgan muhabbatini, yashab turgan ona diyori go'zalligini tabiat ne'matlarining qadriga etishi, ularni avaylab –asrashni farzandlarning ongiga singdirib borishlari lozim.

Oilada ota yoki onaning yo'qligi yoki ketib qolishi tarbiyaga juda katta zarar ko'rsatadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'siri kuchi yo'qoladi. Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarahotlanadi. U tajang, serjahl, qo'pol, dag'al bo'lib qoladi, kattalarga ishonmay qo'yadi. O'qishi ham pasayib ketadi. CHunki bola roqorida aytilgan oila beradigan hamxo'rlikni butunlay yo'qotib qo'yadi. YOlg'iz qolgan ota yoki ona oilaning moddiy tashvishlari bilan shug'ullunib, bolaga etarlicha e'tibor bermay qo'yadi.

Natijada etarli darajada oilaviy e'tibor ko'rmagan bola, kelgusida o'z oilasida bu kamtiklikni yanada qo'polroq tarzda aks ettiradi. Xuddi shunday bu bunday oila bolalarining ijtimoiylashuvi ham qiyin kechadi.

Oila tarbiyasi uydagi omillarga diqqatini qaratmog'i lozim. Jumladan, oilada ruhiy xotirjamlik, samimiylilik munosabatlari shakllangan bo'lishi, ota-ona obro'si roqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oiladagi kattalar o'rtasidagi birlikni saqlanishi, bola shaxsini mehnatda tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rganish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, boladagi mustaqillikka intilishni va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash kabilardir.

Oila tarbiyasida ota-ona obro'si muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bu obro'ni esa ibratli hulqi, ahloqi, intizomi, kamtarligi, ishbilarmonligi bilan qo'lga kiritadilar. Obro' orttirishda eng avvalo, ibrat-namuna muhim rol o'ynaydi. Oilada ota-onalarning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim ahamiyatga egadir. Ularning odilona me'yorli talabchanligi obro' orttirishning muhim yo'llaridan biridir. Tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasixatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim.

4. Xulosa:

O'zbek oilasi tarbiyasida, ayniqsa, otaning obro'si katta ahamiyatga egadir. Ayoli, bolalari oldida obro'ga ega bo'lgan ota, jamoat orasida ham obro' topadi. Oilada obro'si yo'q otadan tarbiya olgan bola, ko'pincha, o'g'ri, muttaham, yolg'onchi bo'lib etishishi shubhasizdir. Ota-ona farzandlari nigohida eng burok kishilardir. SHuning uchun eng yaxshi sifatlari bilangina obro' qozonishlari kerak. Insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan ota-ona o'z farzandlari tamonidan bir umr e'zozlanadi.

Bolalarni barkamol inson qilib etishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan, muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. SHuning uchun maktab va ota-onalar o'rtasidagi ta'lim-tarbiyaga oid ishlarni kengaytirish lozim. Ota-onalarning o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarida aytgan fikrlari ayniqsa, ota-onalar uchun qimmatlidir. CHunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq ma'lumotlarni bilib oladilar. SHunday ekan, bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladilar.

Bola maktabga kirib, to uni tamomlab chiqqunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o'rnatib, farzandining o'zlashtirishi, hulq-atvoridan hamisha xabardor bo'lishi, tarbiya masalalari bo'yicha o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib, uni darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligidan xabardor qilishi lozim. U o'z navbatida o'qituvchi ham bolaning o'qishi, odobi, hulqi, maktabda o'zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga etkazish, zarurat tug'ilganda hosil bo'lgan muammolarni birgalikda hal qilish zarur. SHundagina o'quvchi oldiga bir talab qo'yilishiga erishiladi. Bolasi maktabga borgan ota-ona maktab ya'ni shu jamoaning a'zosiga aylanadi. SHu sababli ota-onalar maktabning ijtimoiy hayotida faol qatnashishlari shart. O'qituvchi ham o'z o'quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'ymog'i lozim.

Ota-onalarning mahalla faollari, mehnat fahriylari bilan tarbiya sohasida hamkorlik qilishlari zarur. Bu ishlar oila tarbiyasiga salmoqli hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida oilaviy tarbiya masalalariga e'tibor yanada kuchayib, dolzarb mavzuga aylanmoqda. Oila deb atalmish kichik jamiyatni boshqarib borayotgan er va xotinning bir-biriga elkadosh bo'lishini, o'zaro odoblarini, bir-biriga bo'lgan mehribonliklarini ko'rgan farzandlar ulardan o'rnak oladilar va ularga o'xshashga harakat qiladilar. CHunki farzand aytgan nasihatingizni esidan chiqarishi mumkin, ammo ko'rganini hech qachon esidan chiqarmaydi. Oilada farzand tarbiyasining bu jihatini hech qachon esdan chiqarmaslik zarur. Xullas, har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasiga e'tibor bilan qarasa, ota-onalik burchini ado

etsa jamiyatga rivojlanishga o'z hissalarini qo'shgan bo'ladi natijada barkamol insonlar ko'payadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston", 2007 y. 11 b.
2. Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi. T. "Movoraunnaxr" 1992 y. 4
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. "O'qituvchi" T, 1992 y. 13b.
4. Mirziyoev SH. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. www.press-service.uz.
5. Концепция предупреждения социального сиротства и развития образовательных учреждений для детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей. / Под ред. М. И. Шепицинов. СПб.: ИПС, 2000. С. 19.
6. Fitrat. Oila. –T.: Ma'naviyat, 1999y. 42 b.
7. Aminova M. M. Значение национальных ценностей в воспитании современной молодежи. //Итернаука. – 2020. – №. 22-2. – С. 51-52.
8. Rao, Parupalli Srinivas, et al. "An International Multidisciplinary Research Journal." (2011): 10-14.
9. Ruzikulova M. The history of irrigation in central Ferghana (1950-1970) //Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19). – 2020. – T. 1. – №. 02. – С. 117-121.
10. Ruzikulova M. Ю. Markaziy Farg'ona cho'llarining o'zlashtirilishi tarixi //Взгляд в прошлое. – 2022. – Т. 5. – №. 6.